



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ART-JURNALISTIKADA MEDIADISKURS VA JANR TRANSFORMATSIYASI

Paluanova Gulmira

Qoraqalpoq davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy media muhitida art-jurnalistika diskursining transformatsiyasi filologik va media-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Qoraqalpog‘iston ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan 30 ta art-jurnalistika matnidan (bosma, audiovizual va raqamli formatlar) iborat korpusga tayanadi. Metodologiya diskurs tahlili, janr tahlili, lingvistik tahlil hamda qiyosiy usullar integratsiyasiga asoslanib, matnlar ekspressivlik, subyektivlik, interaktivlik va multikodlilik indikatorlari orqali kodlangan. Natijalar art-jurnalistika matnlarining media platformalarga qarab sezilarli farqlanishini ko‘rsatdi: raqamli media matnlarida ekspressivlik va subyektivlik ortib, interpretativ diskurs kuchaygani aniqlandi. Interaktivlik darajasining yuqoriligi auditoriyaning faol kommunikativ subyektga aylanganini, multikodlilik esa matn, audio va vizual komponentlar integratsiyasi orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Tadqiqot art-jurnalistikada janrlar transformatsiyasi va gibridd shakllarning (blog, podkast, videokontent) shakllanishini ham aniqladi. Qoraqalpog‘iston OAV tajribasi global media tendensiyalariga moslashgan holda milliy madaniy diskursni rivojlantirishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: art-jurnalistika, mediadiskurs, janr transformatsiyasi, media lingvistika, multimodallik, interaktivlik, subyektivlik, diskurs tahlili, raqamli media, Qoraqalpog‘iston OAV.

МЕДИАДИСКУРС И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАНРОВ В АРТ-ЖУРНАЛИСТИКЕ

Палуанова Гульмира

Каракалпакский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В статье анализируется трансформация дискурса арт-журналистики в современной медиасреде на основе филологического и медиалингвистического подходов. Исследование опирается на корпус из 30 текстов арт-журналистики, опубликованных в СМИ Каракалпакстана (печатные, аудиовизуальные и цифровые форматы). Методология основана на интеграции дискурс-анализа, жанрового и лингвистического анализа, а также сравнительных методов; тексты кодировались по показателям экспрессивности, субъективности, интерактивности и мультимодальности. Результаты показывают значительные различия в зависимости от медиаплатформы: в цифровых текстах усиливаются экспрессивность и субъективность, что свидетельствует о формировании интерпретативного дискурса. Высокий уровень интерактивности указывает на превращение аудитории в активного участника коммуникации, а мультимодальность проявляется в интеграции текстовых, аудио- и визуальных компонентов. Также выявлена трансформация жанров и формирование гибридных форм (блоги, подкасты, видеоконтент). Опыт СМИ Каракалпакстана демонстрирует адаптацию к глобальным медиатенденциям при сохранении национального культурного дискурса.

Ключевые слова: арт-журналистика, медиадискурс, трансформация жанров, медиалингвистика, мультимодальность, интерактивность, субъективность, дискурс-анализ, цифровые медиа, СМИ Каракалпакстана.

MEDIA DISCOURSE AND GENRE TRANSFORMATION IN ART JOURNALISM

Paluanova Gulmira

Karakalpak State University, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the transformation of art journalism discourse in the modern media environment using philological and media-linguistic approaches. The study is based on a corpus of 30 art journalism texts published in the media of Karakalpakstan (print, audiovisual, and digital formats). The methodology integrates discourse analysis, genre analysis, linguistic analysis, and comparative methods, with texts coded according to indicators such as expressiveness, subjectivity, interactivity, and multimodality. The results show significant variation across media platforms: digital media texts demonstrate increased expressiveness and subjectivity, confirming the emergence of art journalism as an interpretative discourse. High interactivity indicates the transformation of the audience into active communicative participants, while multimodality is reflected in the integration of textual, audio, and visual elements. The study also identifies genre transformation and the emergence of hybrid forms such as blogs, podcasts, and video content. The experience of Karakalpakstan's media illustrates the adaptation of art journalism to global media trends while developing a national cultural discourse.

Keywords: art journalism, media discourse, genre transformation, media linguistics, multimodality, interactivity, subjectivity, discourse analysis, digital media, Karakalpakstan media.

Zamonaviy jurnalistika sharoitida san'atni yoritish jarayoni tubdan o'zgarib, u endilikda faqat axborot yetkazish funksiyasi bilan cheklanmay, balki murakkab diskursiv konstruksiya jarayoniga aylanmoqda. Raqamli media, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida art-jurnalistika matnlari til, janr va texnologiyaning o'zaro ta'siri asosida shakllanuvchi ko'p qatlamli kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa art-jurnalistikani nafaqat jurnalistika, balki filologiya, xususan, mediadiskurs va matn lingvistikasi doirasida ham o'rganishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mediadiskurs tushunchasi tilshunoslikda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, u ommaviy kommunikatsiya vositalarida yaratiladigan matnlarning ijtimoiy, madaniy va ideologik mazmunini tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Teun van Dijk mediadiskursni "ijtimoiy ong va jamoaviy tasavvurlarni shakllantiruvchi diskursiv amaliyot" sifatida talqin qiladi [1]. Art-jurnalistika aynan shu jarayonning muhim segmenti bo'lib, u san'atni nafaqat tasvirlaydi, balki uni talqin qiladi, baholaydi va auditoriya ongida muayyan estetik tasavvurlarni shakllantiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy media muhitida janrlar tizimi ham sezilarli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Klassik jurnalistik janrlar — maqola, taqriz, ocherk va intervyu — o'zining an'anaviy shaklini saqlab qolgan holda, raqamli platformalar ta'sirida yangi kommunikativ ko'rinishlarga o'tmoqda. Masalan, an'anaviy taqriz blog-post yoki videoreportajga, intervyu esa podkast yoki jonli efir shakliga transformatsiyalanmoqda. Bu jarayon B. Maknayr tomonidan "media janrlarining konvergentsiyasi va gibridlanishi" sifatida izohlanadi [2].

Art-jurnalistika matnlari aynan shu kontekstda o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib bormoqda. Ularda ekspressivlik, baholovchanlik va subyektivlik kuchayib, muallif pozitsiyasi yanada ochiq ifodalanmoqda. Shu jihatdan, art-jurnalistika matnlari an'anaviy axborot matnlaridan farqli ravishda interpretativ va evaluativ diskurs sifatida shakllanadi. N. Fairclough ta'kidlaganidek, "media matnlari nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni diskursiv jihatdan qayta quradi" [3]. Demak, art-jurnalistika san'at haqidagi bilimni passiv yetkazmaydi, balki uni faol ravishda shakllantiradi.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, art-jurnalistika ko'proq estetik yoki media nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lib, uning lingvistik-diskursiv tabiati yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, post-sovet makonida, jumladan, Qoraqalpog'iston OAV misolida art-jurnalistika matnlarining til xususiyatlari, janr transformatsiyasi va mediadiskurs sifatidagi o'rni kompleks tarzda o'rganilmagan.

Qoraqalpog'iston ommaviy axborot vositalari bu borada o'ziga xos ilmiy-amaliy baza bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hududda art-jurnalistika dastlab an'anaviy bosma nashrlar — gazeta

va jurnallar orqali shakllangan bo‘lsa, keyinchalik radio va televideniye vositasida kengaygan, hozirgi kunda esa internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi bosqichga ko‘tarilgan. Mazkur jarayon art-jurnalistika diskursining evolyutsiyasini kuzatish uchun muhim empirik material beradi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning asosiy maqsadi — Qoraqalpog‘iston OAV materiallari asosida art-jurnalistika matnlarining janr evolyutsiyasi, diskurs xususiyatlari hamda til transformatsiyasini filologik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda art-jurnalistika bir vaqtning o‘zida janr, til va media platformaning integrativ natijasi sifatida talqin qilinadi hamda uning mediadiskurs sifatidagi xususiyatlari tizimli ravishda asoslab beriladi.

Mazkur tadqiqot art-jurnalistika matnlarining lingvistik va diskursiv xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda sifat va qisman miqdoriy tahlil usullari integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi mediadiskurs tahlili, janr tahlili va matn lingvistikasi yondashuvlariga asoslanadi.

Tahlil uchun Qoraqalpog‘iston ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan art-jurnalistika materiallaridan iborat korpus shakllantirildi. Korpus quyidagi manbalarni o‘z ichiga oldi:

- “Erkin Qoraqalpaqstan” gazetasidagi san’atga oid maqolalar;
- “Qoraqalpog‘iston madaniyati” nashridagi taqriz va intervyular;
- mahalliy televideniye madaniy ko‘rsatuvlari matn transkriptlari;
- internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Instagram) art-kontentlar.

Tadqiqot doirasida jami 30 ta matn tanlab olindi:

- 10 ta klassik bosma matn;
- 10 ta audiovizual formatdagi matn;
- 10 ta raqamli media formati.

Tanlash mezonlari quyidagilardan iborat bo‘ldi: san’atga oidligi (teatr, musiqa, tasviriy san’at), janr xilma-xilligi va platforma turining turlicha bo‘lishi. Bu yondashuv art-jurnalistika diskursining evolyutsiyasini solishtirma tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda diskurs tahlili, janr tahlili, lingvistik matn tahlili hamda qiyosiy tahlil usullari o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Avvalo, diskurs tahlili orqali matnlarning ichki kommunikativ tuzilishi va ijtimoiy-semantik mazmuni o‘rganildi. Xususan, baholovchi birliklar, muallif pozitsiyasi va auditoriyaga murojaat shakllari aniqlanib, ularning funksional roli tahlil qilindi. Ushbu yondashuv Teun van Dijkning mediadiskurs nazariyasiga tayanib, matnning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlarini ham ochib berishga xizmat qildi. Shuningdek, janr tahlili usuli art-jurnalistika matnlarining kompozitsion tuzilishi, funksional yo‘nalishi va kommunikativ maqsadini aniqlashda muhim o‘rin tutdi. Mazkur yondashuv klassik jurnalistik janrlar (maqola, taqriz, intervyu) bilan zamonaviy media shakllari (blog, podkast, videoreportaj) o‘rtasidagi transformatsion jarayonlarni aniqlash imkonini berdi. Natijada janrlarning gibridlanishi va yangi kommunikativ shakllarning yuzaga kelishi ilmiy jihatdan asoslandi. Lingvistik tahlil usuli yordamida art-jurnalistika matnlarining til xususiyatlari batafsil o‘rganildi. Tahlil jarayonida ekspressiv leksika (metafora, epitet), baholovchi birliklar hamda subyektiv konstruksiyalar (“menimcha”, “ko‘rinadiki” va boshqalar) aniqlanib, ularning qo‘llanish chastotasi va funksional ahamiyati baholandi. Bu esa art-jurnalistika tilining emotsional-ekspressiv xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali klassik va raqamli media formatlari o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Ushbu usul til, janr va diskurs darajasidagi o‘zgarishlarni solishtirish hamda art-jurnalistikaning evolyutsion rivojlanish tendensiyalarini ochib berish imkonini berdi. Tahlil jarayonining muhim bosqichi sifatida kodlash usuli qo‘llanildi. Har bir matn quyidagi indikatorlar asosida tahlil qilindi:

- **ekspressivlik (E)** — metafora va epitetlarning qo‘llanishi;
- **subyektivlik (S)** — muallif fikrining ochiq ifodalanishi;
- **interaktivlik (I)** — auditoriyaga murojaat shakllari;

- **multikodlilik (M)** — matnda audio, video va vizual elementlarning mavjudligi.

Mazkur indikatorlar yordamida matnlar tizimli ravishda kodlandi va keyinchalik qiyosiy hamda umumlashtiruvchi tahlil amalga oshirildi.

Shu tariqa, qoʻllanilgan metodologik yondashuv art-jurnalistika matnlarini lingvistik, diskursiv va janriy jihatdan kompleks oʻrganish imkonini berdi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini taʼminladi.

Mazkur tadqiqot doirasida shakllantirilgan 30 ta art-jurnalistika matni ekspressivlik (E), subyektivlik (S), interaktivlik (I) va multikodlilik (M) indikatorlari asosida kodlanib, qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar art-jurnalistika diskursining media platformalarga qarab sezilarli darajada differensiallashishini, yaʼni uning lingvistik va kommunikativ xususiyatlari muhitga mos ravishda transformatsiyalanishini koʻrsatdi.

Lingvistik tahlil natijalariga koʻra, ekspressiv birliklarning qoʻllanish chastotasi media turiga bevosita bogʻliq. Klassik bosma matnlarda har bir matnga oʻrtacha 3–5 ta metafora va epitet toʻgʻri kelgan boʻlsa, audiovizual formatlarda bu koʻrsatkich 5–7 taga, raqamli media matnlarida esa 8–12 taga yetgani aniqlandi. Bu holat raqamli art-jurnalistikada emotsional-ekspressiv ifoda vositalarining sezilarli darajada kuchayganini koʻrsatadi. Ayniqsa, blog va ijtimoiy tarmoq matnlarida “taʼsirli sahna”, “chuqur drammatizm”, “yorqin ijro” kabi baholovchi-emotsional birliklarning muntazam qoʻllanishi matn taʼsirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Diskurs tahlili natijalari muallif pozitsiyasining ifodalanish darajasi ham media turiga qarab farqlanishini koʻrsatdi. Klassik matnlarda subyektiv konstruksiyalar nisbatan kam, taxminan 20–30% hollarda uchragan boʻlsa, audiovizual formatlarda bu koʻrsatkich 50% ga yaqinlashgan, raqamli media matnlarida esa 70–80% gacha oshgani kuzatildi. Raqamli platformalarda “menimcha”, “menga koʻra”, “katta taassurot qoldirdi” kabi ifodalar keng qoʻllanib, muallifning individual pozitsiyasi ochiq namoyon boʻlgan. Bu esa art-jurnalistika diskursining interpretativ xususiyatini kuchaytirib, uni anʼanaviy axborot matnlaridan farqlovchi muhim belgiga aylantirgan.

Interaktivlik indikatorlari boʻyicha olingan natijalar art-jurnalistikaning kommunikativ modelida tub oʻzgarishlar yuz berganini koʻrsatdi. Klassik bosma matnlarda auditoriyaga toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat deyarli uchramaydi yoki juda past darajada, 0–10% atrofida kuzatiladi. Audiovizual formatlarda, xususan, telekoʻrsatuv va radio suhbatlarda bu koʻrsatkich 30–40% ni tashkil etgan boʻlsa, raqamli media matnlarida interaktivlik maksimal darajaga yetgani aniqlandi. Materiallarning 80–90% ida auditoriyaga murojaat shakllari — savollar, fikr bildirishga chaqiriqlar, izoh qoldirishga undovchi konstruksiyalar qoʻllanilgan. “Siz bu spektakl haqida nima deysiz?” yoki “fikringizni izohlarda yozing” kabi birliklar art-jurnalistika diskursining dialogik karakter kasb etayotganini koʻrsatadi.

Multikodlilik indikatorlari boʻyicha olingan natijalar media transformatsiyasining eng muhim jihatlaridan birini ochib berdi. Klassik bosma matnlarda multikodlilik deyarli kuzatilmagan, yaʼni 0–5% darajada boʻlib, matnlar asosan verbal shaklda taqdim etilgan. Audiovizual formatlarda bu koʻrsatkich tabiiy ravishda yuqori, 70–80% ni tashkil etib, tasvir va tovush asosiy komponent sifatida xizmat qilgan. Raqamli media matnlarida esa multikodlilik maksimal darajaga yetib, materiallarning 90–100% ida matn, foto, video va audio elementlarning integratsiyasi aniqlangan. Bu art-jurnalistikaning zamonaviy bosqichda toʻliq multimodal kommunikatsiya tizimiga aylanganini koʻrsatadi.

Janr tahlili natijalari art-jurnalistika doirasida sezilarli transformatsion jarayonlar yuz berayotganini tasdiqladi. Xususan, klassik janrlar raqamli muhitda yangi shakllarga oʻtgan: anʼanaviy taqriz qisqa va emotsional blog-postga, intervyu dialogik va erkin podkast formatiga, reportaj esa vizual komponent ustun boʻlgan videoblog shakliga transformatsiyalangan. Natijada janrlar oʻzining qatʼiy chegaralarini yoʻqotib, gibrid kommunikativ shakllarga aylangan.

Umuman olganda, olingan natijalar art-jurnalistika diskursining evolyutsiyasida bir qator muhim tendensiyalar mavjudligini koʻrsatdi. Birinchidan, ekspressivlik darajasi klassik formatdan

raqamli formatga o'tishda keskin oshadi. Ikkinchidan, subyektivlik art-jurnalistika diskursining markaziy xususiyatiga aylanadi. Uchinchidan, interaktivlik faqat raqamli muhitda to'liq shakllanib, auditoriyani kommunikativ jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. To'rtinchidan, multikodlilik zamonaviy art-jurnalistikaning asosiy belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Nihoyat, janrlar gibril shaklga o'tib, yangi mediadiskurs formatlarini yuzaga keltiradi. Shu tariqa, mazkur natijalar qo'llanilgan metodologiya — diskurs tahlili, lingvistik tahlil va janr tahlili — asosida empirik jihatdan tasdiqlanib, art-jurnalistikaning mediadiskurs sifatida transformatsiyasini aniq va tizimli ravishda ochib berdi.

Mazkur tadqiqot natijalari art-jurnalistika matnlarining zamonaviy media muhitida tubdan transformatsiyalanayotganini ko'rsatdi va bu jarayonni mediadiskurs nazariyalari doirasida izohlash imkonini berdi. Olingan empirik ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, art-jurnalistika endilikda an'anaviy jurnalistik faoliyat shakli sifatida emas, balki ko'p qatlamli, multimodal va interaktiv mediadiskurs tizimi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Birinchi, tadqiqotda aniqlangan ekspressivlik darajasining ortishi art-jurnalistika tilining funksional tabiatida yuz berayotgan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Klassik jurnalistikada tilning nisbatan neytral va axborot yetkazishga yo'naltirilganligi ustuvor bo'lgan bo'lsa, zamonaviy raqamli muhitda u tobora emotsional-ekspressiv xarakter kasb etmoqda. Bu holatni N. Fairclough tomonidan ilgari surilgan diskursning rekonstruktiv tabiati bilan izohlash mumkin, ya'ni media matnlar voqelikni oddiy aks ettirmaydi, balki uni muayyan til vositalari orqali qayta quradi. Demak, art-jurnalistika matnlaridagi metafora va epitetlarning ko'payishi san'at hodisasini auditoriya ongida kuchliroq obrazlash va interpretatsiya qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, subyektivlikning keskin ortishi art-jurnalistika diskursining interpretativ modelga o'tayotganini anglatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli platformalarda muallif pozitsiyasi ochiq ifodalanib, "menimcha", "menga ko'ra" kabi konstruktsiyalar keng qo'llangan. Bu jarayon van Dijk ta'kidlaganidek, diskursning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi rolini kuchaytiradi, chunki muallif o'z bahosi orqali auditoriyaning estetik qarashlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, art-jurnalistika endilikda faqat axborot yetkazuvchi emas, balki estetik baho beruvchi va ma'naviy yo'naltiruvchi diskurs sifatida namoyon bo'lmoqda.

Uchinchi, interaktivlikning yuqori darajada namoyon bo'lishi mediakommunikatsiya modelining monologik shakldan dialogik shaklga o'tayotganini ko'rsatadi. Klassik jurnalistikada auditoriya passiv iste'molchi sifatida qaralgan bo'lsa, raqamli art-jurnalistikada u faol ishtirokchiga aylanadi. Bu holat Yu. Habermasning "ommaviy soha" konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi, ya'ni media platformalar jamoaviy muhokama va fikr almashish maydoniga aylanadi [4]. Tadqiqotda aniqlangan 80–90% interaktivlik ko'rsatkichi art-jurnalistika diskursining aynan shunday ochiq kommunikativ maydonga aylanganini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, multikodlilikning maksimal darajaga yetishi art-jurnalistikaning multimodal tizim sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Raqamli media muhitida matn, tasvir va tovushning integratsiyasi san'atni idrok etishning yangi modelini yaratmoqda. Bu esa jurnalistikani faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki semiotik kompleks tizim sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Natijalar shuni anglatadiki, art-jurnalistika endilikda faqat yozilgan matn emas, balki ko'rish, eshitish va hissiy qabul qilishni o'z ichiga olgan ko'p qatlamli kommunikatsiya shaklidir.

Beshinchi, janr transformatsiyasi va gibrilganish jarayoni media konvergentsiyasining aniq ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Taqrizning blog-postga, intervyuning podkastga, reportajning videoblogga aylanishi janr chegaralarining buzilayotganini va yangi kommunikativ shakllarning yuzaga kelayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon B. Maknayr tomonidan ta'riflangan media konvergentsiyasi nazariyasini tasdiqlaydi, ya'ni turli media shakllari bir-biriga singib, gibril diskurslarni yaratadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston OAV tajribasi global media tendensiyalarining lokal darajadagi ifodasini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy art-jurnalistika bir tomondan milliy madaniy kontentni saqlab qolsa,

ikkinchi tomondan uni global media formatlariga moslashtirmoqda. Bu esa art-jurnalistikani lokal va global diskurslar kesishgan nuqta sifatida talqin qilish imkonini beradi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari art-jurnalistika diskursining quyidagi asosiy xususiyatlarini ochib berdi: uning ekspressivlashuvi, subyektivlashuvi, interaktivlashuvi, multimodallashuvi va janr jihatdan gibridlanishi. Ushbu tendensiyalar art-jurnalistikani zamonaviy mediakommunikatsiya tizimining muhim va mustaqil segmenti sifatida ko'rsatadi. Shu jihatdan, art-jurnalistikani filologik nuqtai nazardan o'rganish nafaqat uning til xususiyatlarini, balki zamonaviy jamiyatda madaniy diskurs qanday shakllanishini tushunish uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot art-jurnalistika matnlarining zamonaviy media muhitida yuz berayotgan transformatsiyasini filologik va mediadiskursiv yondashuv asosida tahlil qilishga qaratildi. O'tkazilgan empirik tahlillar natijasida art-jurnalistika an'anaviy jurnalistika shaklidan chiqib, murakkab, ko'p qatlamli va integrativ kommunikativ tizimga aylanganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, art-jurnalistika diskursi media platformaga qarab sezilarli darajada o'zgaradi. Xususan, klassik bosma matnlarda tilning nisbatan neytral va axborotga yo'naltirilganligi kuzatilgan bo'lsa, raqamli media matnlarida ekspressivlik, subyektivlik va emotsionallikning keskin ortishi aniqlandi. Bu esa art-jurnalistikaning interpretativ xususiyatini kuchaytirib, uni oddiy axborot yetkazish vositasidan estetik baho va talqin beruvchi diskursga aylantiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida interaktivlik darajasining ortishi art-jurnalistika kommunikatsiya modelining tubdan o'zgarayotganini ko'rsatdi. Auditoriya endilikda passiv iste'molchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lib, bu jarayon mediadiskursning dialogik xarakter kasb etishiga olib kelmoqda. Multikodlilikning kengayishi esa art-jurnalistikani multimodal tizimga aylantirib, san'atni idrok etishning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Janr tahlili natijalari art-jurnalistikada gibrid shakllarning shakllanayotganini ko'rsatdi. Klassik janrlar raqamli media ta'sirida transformatsiyalanib, yangi kommunikativ formatlarni yaratmoqda. Bu jarayon jurnalistikada media konvergentsiyasi va diskurs integratsiyasining muhim ifodasi sifatida baholanishi mumkin. Qoraqalpog'iston ommaviy axborot vositalari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, mahalliy art-jurnalistika global media tendensiyalariga mos ravishda rivojlanib, milliy madaniy kontentni zamonaviy formatlarda taqdim etmoqda. Bu esa art-jurnalistikani lokal va global diskurslar kesishgan muhim kommunikativ maydon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari art-jurnalistikaning quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi: uning ekspressivlashuvi, subyektivlashuvi, interaktivlashuvi, multimodallashuvi va janr jihatdan gibridlanishi. Ushbu xususiyatlar art-jurnalistikani zamonaviy mediakommunikatsiya tizimining mustaqil va strategik segmenti sifatida ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda art-jurnalistika bir vaqtning o'zida lingvistik, janr va media platforma integratsiyasi natijasida shakllanuvchi mediadiskurs sifatida talqin qilindi. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari jurnalistlar, media mutaxassislar va filologlar uchun art-jurnalistika matnlarini yaratish va tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni kengaytirish, xususan, kattaroq korpus asosida kvantitativ tahlillar o'tkazish hamda turli madaniy kontekstlarda art-jurnalistika diskursini qiyosiy o'rganish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. van Dijk T. A. *Discourse and Power*. — London, 2008.
2. McNair B. *Cultural Chaos: Journalism and Power in a Globalised World*. — 2006.
3. Fairclough N. *Media Discourse*. — London, 1995.
4. Habermas J. *The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society*. — Cambridge, MA: MIT Press, 1991.
5. Qoraqalpog'iston ommaviy axborot vositalari materiallari (2020–2025): “Erkin Qoraqalpaqstan” gazetasi maqolalari; “Qoraqalpog'iston madaniyati” nashri materiallari; mahalliy televideniye madaniy ko'rsatuvlari transkriptlari.